

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**ARTISTIC-AESTHETIC INTERPRETATION OF THE MUSHOARA TRADITION IN THE WORK “TAZKIRAT USH-SHUARO”****Mohinur Abdurahmonova***“University of economics and pedagogy”**Non-state higher educational institution teacher*abdurahmonova.mohinur@bk.ru*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: poetic competition, artistic thought, irony, semantics, socio-political context, literary process, Samanid era.

Received: 21.04.26**Accepted:** 22.04.26**Published:** 23.04.26

Abstract: This article analyzes the formation and stages of development of the mushoara genre in the classical literature of the East, in particular, in the Arabic, Persian-Tajik and Uzbek literary environments, in a historical and literary context. It is highlighted with reasonable evidence that this genre, which arose in Arabic literature in the VI-VII centuries AD, developed as an independent artistic phenomenon in Persian-Tajik literature by the IX-XI centuries, and improved in close connection with the genres of classical poetry during the Samanid era. The study draws on the work of Davlatshah Samarkandiy "Tazkirat ush-shuaro" as an important source, and analyzes the examples of mushoara in it from the point of view of poetic, semantic and genre characteristics.

“TAZKIRAT USH-SHUARO” ASARIDA MUSHOARA AN’ANASINING BADIY-ESTETIK TALQINI**Mohinur Abdurahmonova***“University of economics and pedagogy”**NOTM o‘qituvchisi*abdurahmonova.mohinur@bk.ru*Toshkent, O‘zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so‘zlar: poetik raqobat, badiiy tafakkur, kinoya, semantika, ijtimoiy-siyosiy kontekst, adabiy jarayon, Somoniylar davri.

Annotatsiya: Mazkur maqolada mushoara janrining Sharq mumtoz adabiyoti, xususan, arab, fors-tojik va o‘zbek adabiy muhitidagi shakllanishi hamda taraqqiyot

bosqichlari tarixiy-adabiy kontekstda tahlil etiladi. Milodiy VI–VII asrlarda arab adabiyotida yuzaga kelgan ushbu janrning IX–XI asrlarga kelib fors-tojik adabiyotida mustaqil badiiy hodisa sifatida rivojlangani, Somoniylar davrida mumtoz poeziya janrlari bilan uzviy aloqada takomillashgani asosli dalillar bilan yoritiladi. Tadqiqotda Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asari muhim manba sifatida jalb etilib, undagi mushoara namunalari poetik, semantik va janriy xususiyatlari nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

ХУДОЖЕСТВЕННО-ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТРАДИЦИИ МУШОАРА В ПРОИЗВЕДЕНИИ «ТАЗКИРАТ УШ-ШУАРО»

Мохинур Абдурахмонова

«Университет экономики и педагогики»

Преподаватель негосударственного высшего учебного заведения.

abdurahmonova.mohinur@bk.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: поэтическая конкуренция, художественная мысль, ирония, семантика, социально-политический контекст, литературный процесс, эпоха Саманидов.

Аннотация: В данной статье анализируются формирование и этапы развития жанра мушоары в классической литературе Востока, в частности, в арабской, персидско-таджикской и узбекской литературных средах, в историко-литературном контексте. С убедительными доказательствами подчеркивается, что этот жанр, возникший в арабской литературе в VI-VII веках н.э., развился как самостоятельное художественное явление в персидско-таджикской литературе к IX-XI векам и совершенствовался в тесной связи с жанрами классической поэзии в эпоху Саманидов. В качестве важного источника используется работа Давлатшаха Самаркандского «Тазкират уш-шуаро», а примеры мушоары в ней анализируются с точки зрения поэтических, смысловых и жанровых характеристик.

Kirish. Mushoara janri o‘zbek adabiyotiga bir necha davriy bosqichlarda sayqallanib, yanada takomillashgan variantda kirib keldi. Milodiy VI-VII asrlarda arab adabiyotida yuzaga kelgan ushbu janr IX-XI asrlarga kelib fors-tojik adabiyotida mustaqil badiiy hodisa sifatida rivojlandi. Somoniylar davrida fors adabiyoti arab alifbosi asosida shakllanib, mumtoz

poeziyaning ruboiy, gʻazal, qasida kabi janrlari orqali taraqqiy eta boshladi.[1.39]. “Bu adabiy jarayonda bevosita Rudakiy va Firdavsiy, Nosir Xisrav va Umar Xayyom, Xoqoniy va Nizomiy, Saʼdiy va Hofiz, Xisrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiy singari ulkan soʻz sanʼatkorlari yetishib chiqdi”.[4.34]

Shoirlarning badiiy hamkorlik aloqalari mushoara janrining fors-tojik adabiyotidagi rivojiga ulkan xissa qoʻshdi. Bu haqda Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” asarida qimmatli maʼlumotlar keltirilgan boʻlib, unda fors-tojik adabiyotidagi mushooralarning ilk naʼmunalari oʻrin olgan. Xususan, Firdavsiy, Unsuriy va uning shogirdlari Asjadiy va Farruxiylar tomonidan bitilgan ushbu baytlar mazkur janrning nazariy qoidalariga asoslangan:

Unsuri guft:

Chun orazi tu moh naboshad ravshan,

Asjadi guft:

Monandi ruxat gul nabuvad dar gulshan.

Farruxi guft:

Mijgon-t guzar jame kunad az javshan,

Firdavsi guft:

Monandi sinoni Gev dar jangi Pashan. [2.66].

Mushoaraning yozilish tarixini muallif quyidagicha bayon qiladi:

Firdavsiyning qiynalishlari Tus hokimi uni zulmga solib, adolatsizlik qilganidan boshlandi. U hokimdan shikoyat qilish uchun Gaznaga boradi va bir muddat Sulton Mahmud saroyiga qatnaydi, ammo unga yuzma-yuz uchrashish imkoni boʻlmaydi. U qashshoqlikka tushib, kasb sifatida sheʼriyatni tanlaydi. Qitʼalar, qissalar va qasidalarni oʻqib, oddiy odamlar hamda elita vakillaridan maosh oladi. Qalbida u ustod Unsuri bilan suhbatlashish orzusini yashirgan edi. Uning Unsuri bilan uchrashishga boʻlgan ulkan intilishi amalga oshmadi, to bir kuni u Unsuri majlisiga sirgʻalib kirishga muvaffaq boʻlgunicha. Bir majlisda Unsur va ining shogirdlaridan Asjadiy va Farruxiy ham hozir edilar. Ustoz Unsuri qishloqcha koʻrinishga ega Ferdavsini koʻrib, hazillashib dedi: "Ey birodar, shoirlar jamiyatida faqat shoir boʻlishi kerak." Firdavsiy dedi: "Menda bu sanʼatda biroz mahorat bor." Ustoz Unsuri uning zakovatini sinash uchun dedi: "Har birimiz bir bayt aytamiz; agar sen yana birini ayta olsang, magʻlubiyatni tan olamiz." Unsuri uni murakkab baytlar va sheʼriyat boʻyicha sinovdan oʻtkazdi va Firdavsiyni sheʼriyat hamda soʻz sanʼatida mahoratli deb topadi. U dedi: "Ey birodar, bizni sizning mahoratingizni tanimaganimiz uchun kechiring" –deya uni oʻziga hamroh qiladi.[2.67].

Koʻrinib turibdiki, “Tazkirat ush-shuaro” asari IX–XI asr fors-tojik sheʼriyatining tarixiy konteksti, janr tizimi, asosiy shoirlari va ularning ijodiy-estetik qarashlarini oʻzida mujassam etgan. Bu asar nafaqat ilmiy-tarixiy manba hisoblanadi balki, hayotiy voqelikni badiiy tasvir

vositalari bilan to'yintirilganligi bilan ham mukammallik kasb etadi. Tazkirada e'tirof etilgan har bir ijodkorning ijodiy mahsuli biror rivoyat yoki hikoya orqali bayon qilingan. Bu esa ma'lumotlarni yanada ishonchli va jonli shaklda namoyon bo'lishini ta'minlaydi.

“Rivoyat qilinadiki, bir kuni Xoja Shamsuddin umum va xos kishilarni qabul qiladigan majlisda xo'jalik mansabining yuqori o'rnida o'tirgan edi. Shu payt Badr Jojarmiy Xojaning huzuriga kirib, kinoya va ta'na mazmunidagi bir ruboiy o'qidi:

Badr Jo'jarmiy:

Dunyo chu muhit astu kafi xoja nukat,

Payvasta ba girdi nuqta megardad xat.

Parvardai tu kengu mengu dunu vasat,

Davlat nadijad Xudoy kasro ba xalat”. [2.67].

Bu ruboiy tashqi ko'rinishda madhiyaviy bo'lib tuyulsa-da, ammo ichki qatlamida nozik kinoya mavjud. Dunyo Xojaning ixtiyorida turgandek tasvirlanadi, ammo oxir-oqibat hokimiyat va davlat ilohiy adolat bilan o'z egasiga topshiriladi. Xojaning kafti — “nuqta” ga qiyos etilib, olam uning atrofida aylanayotgandek, go'yo. Bu esa haddan ortiq markazlashtirishdir. Ruboiyning oxirgi: “Davlat nadijad Xudoy kasro ba xalat” ya'ni, “Alloh davlatni xato bilan bermaydi” misrasi esa ikki ma'noli: bir tomondan, Xojaning mavqeini ilohiy deb ko'rsatish, ikkinchi tomonidan, “Gar sen bu joyda bo'lsang, demak bu ham senga sinov”-degan yashirin shubhani uyg'otadi. Kinoyaviy ma'noni anglagan Xoja Shamsuddin qalam va siyohdonni olib, shoir ruboiysining orqa tomoniga darhol javob sifatida quyidagi ruboiyni yozadi:

Xoja Shamsuddin:

Sesad barai safed chun bayzai bat,

Dar vay zi siyohi nabuvad hech nukat.

Az gallai xosi mo, na az joi xalat,

Cho'pon bidinad ba dasti dorandai xat.

Xoja Shamsuddin ruboiy-mushoarada “nuqta” tushunchasini butunlay o'zga semantik maydonga ko'chiradi. Aslini olganda, Badr Jojarmiy kinoyasini inkor etmaydi, balki uni ramziy ustunlik orqali bartaraf qiladi. Bu esa mushoara janriga xos intellektual javobdir. Ikki ijodkor o'rtasidagi ruboiy almashinuvi bevosita poetik raqobat jihatidan klassik mushoara qoidalariga to'la mos keladi. Ayni jarayonlarda o'rta asr adabiy majlislarida mushoaraning o'rni faol ekani o'z tasdiqini topadi.

Davlatshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-shuaro» asarini yozishda juda ko'p manbalardan: o'zidan oldin yozilgan tazkiralardan, xususan Abu Toxir Xotuniyning “Manokib ush-shuaro”, Avfiyning “Lubob ul-albob” kitoblaridan, tarixiy va geografik asarlardan, xususan, Istaxriyning “Kitob masolik ul-mamolik”, Gardiziyning “Zayn ul-axbor”, Abulfazl Bayxakiyning “Tarixi oli

Sabuktakin” va boshqalardan, shuningdek, tazkirada qayd etilgan shoir va adiblarning asarlaridan keng foydalangan.[3.42]. Samarqandiy Sharq tazkirachilik an’anasini yangicha ruh, o’zgacha uslubiy yondashuvlar orqali davom ettirgan. Shu jihati bilan davr tazkiraviy asarlari orasida o’ziga xos xususiyatga ega bo’lgan. Masalan, asarda nafaqat ijodiy, balki ijtimoiy-siyosiy aloqalarda ham mushoara janri ishtirokini kuzatishimiz mumkin.

“Elarlon hijriy 567-yilning shuhr (oylaridan biri)da vafot etdi va hayot omonatini qazo va qadar vakillariga topshirdi. Undan so’ng o’g’illari — Sulton Shohmahmud va Aloiddin Takashxon o’rtasida Xuroson saltanati uchun kurash boshlandi. Bu nizolar Xuroson xalqiga katta parokandalik keltirdi.

Sulton Shohmahmud Takashxonga quyidagi ruboiyni yubordi:

Mayxona turo masofu maydon moro,

Koshona turo nabardu javlon moro.

Xojï, ki tanozu’ az miyon barxezad,

Xorazm turo, mulki Xuroson moro.

Takashxon bunga javoban quyidagi ruboiyni yubordi:

In fãam, axiyo, savdo junon moro,

In qissa na dar mo, na dar shumon moro.

To qabzai shamsheri kï xun poloyad,

To davlatu iqboli kï bolon moro.

Saraxsda ikki aka-uka o’rtasida jang bo’lib, Takashxon g’alaba qozondi. Sulton Shohmahmud Xorazmga qochdi, biroq u yerda ham unga panoj berilmadi. U saholarda sarson bo’lib yurib, oxir-oqibat vafot etdi. Shu tariqa saltanat mustaqil ravishda Takashxonga qaror topdi. Bu Allohning fazlidir — “U fazlini xohlagan bandasiga beradi”. Bu voqea hijriy 569-yilda sodir bo’lgan [2.70].

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Abdurahmonov A. Turkiy adabiyotning qadimgi davri. - T.: 2005
2. Davlatshohi Samarqandiy. Tazkirat ush-shuaro.- Xujand: “Noshir” nashriyoti., 2015.B.66
3. Ma’naviyat yulduzlari .”Markaziy osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar”O‘MI Matbuot xizmati
4. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi.- T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti., 2006. B.34.